

TILSHUNOSLIKDA “UMIDSIZLIK” TUSHUNCHASI VA UNING “MARTIN IDEN” ROMANIDAGI IFODASI

G. Bobonazarova¹, A. Kenjayev²

Annotatsiya:

Ushbu maqola kognitiv tilshunoslikda til va ong o'rtasidagi bogliqlik va unda yuz beradigan “umidsizlik” hissining aks etishini ifodalashda Jek Londonning “Martin Iden” romanini misolida o’rganildi.

Kalit so‘zlar: ishonchsizlik, Martin, Ruf, qo‘rquv, mashxur yozuvchi

doi: <https://doi.org/10.2024/5r7ysm29>

Inson hayotda yashar ekan, unda yashashga va ertangi kunga bo‘lgan umid hissi bo‘ladi. Bu his bizga odamzod paydo bo‘lgandan buyon evolyutsiya jarayonida yetib kelgan. Bu bir biriga o‘rgatib bo‘lmaydigan yoki o‘zlashtirib olinmaydigan tuyg‘u hisoblanadi. Inson yashar ekan, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi va unga erishish uchun kurash jarayonida unga umid bog‘laydi, ya’ni yaxshi yashashga bo‘lgan umid, qandaydir ehtiyojlarini qondiradigan moddiy narsalarga bo‘lgan ehtiyoj umidi ham bo‘lishi mumkin. Bu his natijasida inson ko‘p narsalarga erishishi pozitiv kayfiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Umid mavhum his-tuyg‘ulardan biri bo‘lib, u yo‘qotilganda umidsizlik hissi paydo bo‘ladi. Muammolar ichida qolish, stress yoki ishonchsizlik umidni sindiradi va inson miyasida umidsizlik yuzaga keladi. Umidsizlik insonning jismoniy va psixologik farovonligiga tahdid solishi, tiklanish va reabilitatsiya jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Pan H.H va Chiou C.P o‘z maqolasida umidsizlikning ta’sirini o‘rganadigan ko‘plab tegishli adabiyotlar mavjudligi, ammo umidsizlik tushunchasini tahlil qiladigan adabiyotlar yo‘qligini ta’kidlashgan. Shu sababli, ushu maqolaning maqsadi umidsizlik tushunchasini yoritishdir.

Insondagи hislar bir-biri bilan bog‘liqligi sababli umidsizlik tushunchasi nimalar orqali his qilinishini ko‘rib chiqamiz. Masalan, ishonchsizlik. O‘ziga bo‘lgan ishonch va boshqalarga ishonch. O‘zgalarga ishonish natijasida o‘ziga bo‘lgan ishonch ham yuzaga kelishi mumkin. Ishonchni yo‘qotish natijasida miya boshqalarga qayta ishonishni taqiqlaydi va shubha paydo bo‘ladi. Asta sekinlik bilan esa shubha o‘rnini umidsizlik egallaydi.

Jek Londonning ko‘pgina hikoyalarida umidsizlikka tushgan qahramonlar ko‘p uchraydi, chunki yozuvchi yoshlidan qiynnalib katta bo‘lgan va boshidan o‘tganlarini o‘z qahramonlari orqali tasvirlab sodiq o‘quvchilariga erishgan. Masalan, “Martin Iden” romanida bosh qahramon Martin ham yozuvchining avtobiografik hayotidan olingan. Qahramon roman boshida qiyinchilikda o‘tgan hayot tashvishlaridan umidsizlikda yashagan bo‘lsa, keyinchalik unga umid

¹ Bobonazarova Gulxayo Habibulla qizi, Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

² Kenjayev Azimjon Tolibjonovich, Koreyaning Gachon universiteti talabasi

International Conference
**HUMANISTIC ROLE OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEMPORARY
GLOBALIZATION**

berib keyin kuchli umidsizlikka tushirgan Ruf orqali hayoti tanazzulga yuz tutgan.

To'liqroq aytadigan bo'lsak, burjuaziya davrida zodagonlar oilasidan bo'lgan qiz Ruf Martinning hayotiga nur olib kirgan ideal farishtadek tuyuladi va Martin hayotini yaxshilashga, qaytadan o'qib o'rganib oqsuyaklardek o'zini tutishga harakat qiladi. Buning uchun ko'p mehnat qiladi, kerak bo'lsa qora ishlarni ham uddalaydi.

Lekin Ruf bunday ishlardan ortmagan Martinni yomon ko'rar edi va uni o'zgartirishga harakat qiladi, zodagonlar davrasida ko'proq qatnashishini hohlar edi. Lekin Martin ular bilan bir davrada o'tirib ularning judayam kibrli va o'zidan boshqalarni o'ylamaydigan odamlar ekanini tushundi va ochiq oydin ularga ichidagilarni aytib tashlaydi. Shundan so'ng u zodagon bo'lishdan umidini uzadi, chunki bu orqali u o'zligini oilasini unutishi kerak edi.

Shundan so'ng Martin o'zini yozuvchilikka bag'ishlaydi, bir kun kelib haqiqiy yozuvchi bo'lishdan umidini uzmaydi va shu orqali Rufga muhabbatini isbotlashga urinadi. Ammo bir kuni umidlari chippakka chiqadi: Ruf uning ijarada yashayotgan ko'rimsizgina uyiga ko'rgani keladi, bundan xursand bo'lgan Martin uni o'tqizgani joy topolmaydi. Ruf esa unga boshqa birga bo'lolmasligini aytgani kelgan edi.

Bu voqeordan keyin Martinning umidlari butunlay so'ndi: yozishga, yashashga, yaqinlari bilan gaplashishga ham xohishi qolmadi. Aynan bu hodisa umidsizlikka tushish edi. Unda hechqanday hechnarsaga qiziqish qolmasligi uni tushkunlikka tushirdi, yaqinlaridan ham uzoqlashtirdi.

Eng qizig'i esa Martin aynan barchasidan qo'l siltagandan so'ng shu paytgacha bosilmagan hikoyalarini endi qimmat narxlarda gazetalarda chop etila boshlandi va Martin bir paytlar o'zi hohlagandek darajaga erishdi. Ammo endi bu paytda unga bu kerak emas edi. Uning mashxur yozuvchi bo'lganini eshitgan Ruf va uning oilasi Martinni mehmonga chaqirishdi, Martin esa buni rad etdi. U o'zini tanigan o'zligini yo'qotmagan yozuvchi bo'lib tanildi. U jismonan sog' va baquvvat bo'lsada, ichidagi yuz berayotgan hodisalar fikrlar uni o'z domiga tortar edi.

Har safar u dengiz safariga chiqishdan oldin dam olib kelish haqida toza havodan to'yib nafas olish haqida o'ylar edi, lekin bus afar Martinning yuragida qandaydir qo'rquv bor edi. Bu umidsizlikning oxirgi nuqtasi bo'lgan o'lim edi. "Ko'zi og'rihan odamni porloq nur qanchalik qiyinasa, hayot ham Martinni shunchalik qyinoqqa solardi".

U qayerga bormasin o'zini ular bilan birga ko'rolmadi o'zini diqqinafa bo'lib, umidsizlikka tushdi. Oxir oqibat hechkim sezmag'an paytda o'zini dengizga tashladi hayotga bo'lgan ishtiyooq uni yana nafas olishga undasada, qayta suv tubiga sho'ng'ib o'zini cho'ktirdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, inson yashashi uchun kearkli bo'lgan his bu umid hisoblanadi, umidsizlikka tushmaslik uchun barcha choralarни qidiradi, ammo barcha yo'llar yopilsa, inson o'zligini yo'qotib qo'yadi va qalbi sinadi, ishonchsilik yuzaga keladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Jek London: Martin Iden. Roman. Toshkent, 1968

[2]. GH qizi Bobonazarova, Kognitiv tilshunoslikda tafakkur va konsept tushunchalari. Zamonaliv fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal 2 (1), 226-

232

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

[3]. GH qizi Bobonazarova, Jek London hayotining "Martin Iden" asaridagi aksi. Golden brain, 2023
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:9yKSN-GCB0IC

[4]. GH qizi Bobonazarova, Jek Londonning "martin iden" romanida amerika realizmi davridagi hayot aksi. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 2024
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:qjMakFHDy7sC

[5]. BM Raxmanovna, Jane Austen as an Owner of Realistic Approach in Novels. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2023

[6]. Rasulova Soxiba, B. Ирвинг ижодида "Ал-Ҳамро" романидаги арабча сўзларининг асосий турлари ва таржимашунослик муаммолари 2022. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oB_qyaMAAAAJ:_kc_bZDykSQC